

## Mumtoz adabiyot tarixi bo'limi

1950-yillardan boshlab adabiyot tarixini urganishga bulgan qiziqish kuchayib, 1956-yildan o'tmish o'zbek adabiyotini o'rganuvchi maxsus bo'lim tashkil etildi. Unga falsafa fanlari doktori, taniqli navoiyshunos olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi, professor Vohid Zohidov rahbar etib tayinlandi. Bo'lim oldida turgan asosiy masala kup asrlik tarixga ega bulgan uzbek adabiyoti tarixini yaratish edi. Biroq ilmiy kuchlar kam, adabiyotimiz tarixiga oid ko'p masalalar esa hali yetarli o'rganilmagan edi. Shuning uchun birinchi galda adabiyotimiz tarixi bilan bog'lik, materiallarni sistemalashtirish, o'rganilmagan ijodkorlarning hayoti va ijodini chuqurroq o'rganish, adabiyot tarixinining kam o'rganilgan davrlarini yanada chuqurroq tahlil etish, adabiyot tarixinining nazariy masalalari bilan esa yanada jiddiyroq shug'ullanish muammolari kun tartibiga quyildi. Shundan kelib chiqib, avvalo 4 jilddan iborat «O'zbek adabiyoti» degan xrestomatiya tipidagi qo'llanma tuzish maqbul topildi. Yetakchi mutaxassislar — P. Shamsiyev, H. Zarifov, S. Mutallibov A. Hayitmetov, A. Abdug'afurov kabilar yoniga yangi tadqiqotchilar — A. Qayumov, H. Sulaymonov, R. Majidiy, S. G'aniyeva, E. Rustamov, M. Qodirova va boshqalar ko'shildi. Izlanishlar davomida o'tmish o'zbek adabiyoti materiallari nihoyatda ko'pligi, lekin u ni o'rganish, yig'ish, nashr etish ishlariغا sun'iy ravishda keng yul berilmaganligi ma'lum bo'ldi. Natijada, «O'zbek adabiyoti» majmuasining 4-jildi ikki kitobdan iborat qilib nashr etiladigan bo'ldi. Bundan keyingi matnshunoslik izlanishlari esa bu to'rt jildlikka beshinchi jild bo'lib ko'shildi.

Bu davrda o'zbek adabiyoti tarixi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlariغا ham keng yul ochildi. 50-yillarning oxiri va 60-yillarda adabiyotimiz tarixinining o'rganilmagan yoki kam o'rganilgan davrlari hamda namoyandalarini o'rganishga, nazariy masalalarni yoritishga intilish kuchayib, bu sohada bir qancha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari yoqlandi. Masalan, A. Qayumoviing «Qo'qon adabiy muhiti», H. Sulaymonovning «Alisher Navoiy lirikasi bo'yicha tekstologik tadqiqot», P. Shamsiyevning Alisher Navoiy «Xamsa»sining ilmiy-tanqidiy matni va uni tayyorlash prinsiplari», A. Hayitmetovning «Alisher Navoiyning njodiy metodi» A. Abdug'afurovning «Alisher Navoiy ijomida satira» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalari mamlakatimizda adabiyotshunoslik fanining yuksalishi belgisi bo'lib, yangi ilmiy tadqiqotlarga yo'l ochdi. Bu olimlar e'lon kilgan yuzlarcha maqola va kitoblar esa mumtoz o'zbek adabiyoti tarixini yaratishning nazariy asoslari vazifasini o'tashi kerak edi va shunday bo'ldi ham. A. Hayitmetovning «Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari» (1960), «Navoiy lirikasi» (1961), «Navoiyning ijodiy metodi masalalari», A. Abdug'afurovning «Navoiy satirasi» (1966), «Navoiy ijomida satira» (1972), P. Shamsiyevning «O'zbek matnshunosligiga oid tadqiqotlar», Y. Ishoqovning «Navoiy poetikasi», E. Rustamovning «XV asrning birinchi yarmida o'zbek adabiyoti» (1963), S. Erkinovning Lutfiy, M. Mirzaahmedovaning «Xoja», T. Ahmedovning Navoiy «Layli va Majnun»i haqidagi monografik tadqiqotlari, S.G'aniyevning Navoiy qalamiga mansub «Majolis un-nafois» asari plmiy-tanqidiy matni ustidagi ilmiy ishlari va bu matnning 1961-yilda nashr etilishi boy adabiy merosimizni ilmiy

asoslarda o‘rganishning muhim va go‘zal namunalari edi. Shu yillarda Alisher Navoiy asarlarining 15 jiddligini nashrga tayyorlash ham shu bo‘lim ilmiy xodimlari tomonidan amalga oshirilgan edi.

1966-1967-yillarda bo‘lim boshlig‘i vazifasini filologiya fanlari nomzodi R. Majidiy bajargan bo‘lsa, 1967-yildan 1999-yilgacha – 32 yil davomida bo‘limga filologiya fanlari doktori, professor A. Hayitmetov rahbarlik qilib keldi. 1999-yildan filologiya fandari doktori I. Haqqulov bo‘lim rahbari sifati faoliyat yuritib kelmoqda.

### **Bo‘limning ilmiy tadqiqot yo‘nalishdari:**

1. “Adabiyot nazariyasi”
2. “Adabiyot tarixi”
3. “Matnshunoslik va manbashunoslik”

**Bo‘lim xodimlari tarkibi:** 1 fan doktori., 6 fan nomzodi, 3 kichik ilmiy xodim.

### **O‘quv-metodik va tashkiliy ishlari:**

I. Haqqulov Buxoro davlat universiteti va Navoiy davlat pedagogika institutida, E. Ochilov Toshkent davlat sharqshunoslik institutida dars beradi. M.Hakimov «Yoshlar» telekanalida «Navoiy nabiralari» ko‘rsatuvini tayyorlaydi va olib boradi.

**Kadrlar salohiyati:** Bugungi kungacha ushbu bo‘limda P. Shamsiyev, H. Zarifov, S. Mutallibov A. Hayitmetov, A. Abdug‘afurov, A. Qayumov, H. Sulaymonov, R. Majidiy, S. G‘aniyeva, E. Rustamov, M. Qodirova, E. Rustamov, S. Erkinov, Y. Ishoqov, M. Mirzaahmedova kabi adabiyotshunos namoyandalari, hozirda esa adabiyotshunos olimlardan I. Haqqulov, Q. Ergashev, S.Rafiddinov, M.Abdullayev, B.Rajabova, N. Hasanov, S.O‘tanova, A. Bektosheva, M Asadov M.Hakimov kabilar o‘zbek adabiyoti tarixi tadqiqiga munosib hissa qo‘shdilar va shu yo‘nalishda izlanishlar olib bormoqdalar.

## **Xorijiy nashrlari:**

1. Rajabova B. Nevayi ansiklopeiyesinden etudler // Guncel sanat – 2015, Ocak-Subat. 1-son. 74-77-s.
2. Haqqulov I. Junun ma’rifati // Buloq. Urumchi. 2012, 2-son, 46-57-b.
3. Haqqulov I. Sulaymon Boqirg‘oniy // Buloq. Urumchi. 2012, 4-son, 92-97-b.
4. Haqqulov I. Tasavvuf va Bobur she’riyati // Buloq. Urumchi. 2013, 1-son, 50-59-b.
5. Rajabova B. Navoiy va “Zand” kitobi haqida // Filologiya masalalari 2013 7-son. 279-287-b.
6. Radjabova B. «Hazayin ul-meanî» eseri örneÄÝinde Nevaî gazellerinde daÄÝ imgesi// Edebiyatta DaÄÝ. Ankara. 2013 323-329-sayı.
7. Radjabova B. Türk EdebiyatÄ±nda Söz, Kalem, Yekkalem tipi (Nevayi “Hamse”si ve Abay”Ä±n “Nakliye sözler” eserleri misalinde) // Tezislar to‘plami. Turkiya. Nig‘da, 63-s.
8. Ochilov E. Tvorchestvo Maxtumkuli v Uzbekistane // Miras, Turkmenistan, 2013, 4-son, 41-49-b.
9. Ochilov E. Tematiceskoye raznoobraziye aforizmov Maxtumkuli // Maxtumkuli Fragi i obshechelovecheskiye kulturniye sennosti”. Materiali mejdunarodnoy konferensii. – Ashgabat, 2014. – S. 125-126.

## **Uzoq xorij:**

1. Asadov M. Poetik Features of Sakiynama // International Journal of Literature, Linguistics & Interdisciplinary Studies. 2015, February. – 2. 176-179-p.